“Xotira” soya navi — mahalliy seleksiya yutug‘i!

O‘zR FA Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti tomonidan mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan va yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega “Xotira” soya navi yaratildi, muvaffaqiyatli patentlandi va amaliyotga joriy etildi.



Hozirda

“Amir, Vali, Fayz” urug‘chilik MChJ (Yangiyo‘l tumani)
“Yangihayot, Sharqiyabonu, Fayz” fermer xo‘jaliklari
Jizzax viloyati va boshqa hududlarda agrotexnik tavsiyalarga muvofiq tatbiq etilmoqda.

Asosiy agrobiologik ko’rsatkichlari:

O’suv davri: 115–120 kun
O’simlik bo’yi: 120–130 sm
Bo’g’inlar soni: 26–27 dona
Dukkaklar soni (o’simlikda): 90–95 ta
Dukkakdagi don soni: 2–3 dona
1000 dona og’irligi: 171–176 g
Oqsil miqdori: 42–44 %
Moydorlik: 24–25 %
Hosildorlik: 30–35 s/ga

Navning afzalliklari:

Yarim determinant bo'yli — asosiy ekin sifatida ekishga mos;
Oqsil va moy miqdori yuqori;
Vegetatsiya oxiridagi belgilar hosilning to’liq pishganligini aniqlashda yordam beradi;
2021-yildan Qishloq xo’jalik ekinlarini sinash markazida sinovdan o’tmoqda.